ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/kczbp104

NOMODDIY MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISH TIZIMINING SHAKLLANISHI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI: NAMANGAN VILOYATI TAJRIBASI (1991–2026)

Solijonov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li
UBS Toshkent filiali, o‘qituvchi.
e-mail: solijonovotabek997@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0000-6170-0121

Annotatsiya.
Maqolada O‘zbekiston mustaqilligi yillarida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimining shakllanishi va rivojlanishi to‘rt bosqichga ajratilgan holda tahlil qilinadi. Namangan viloyati misolida ijrochilik san’ati, hunarmandchilik, milliy taomlar tayyorlash an’analari hamda xalq bayramlarining bugungi holati va hududiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Nomoddiy madaniy merosning sahnalashtirilishi, tijoratlashuvi va madaniy an’analarning avlodlar o‘rtasida uzatilishidagi uzilishlar asosiy muammolar sifatida belgilanadi. Shuningdek, madaniy meros tashuvchilarining reyestrini yuritish, meros namunalarini raqamli hujjatlashtirish hamda ustoz–shogird an’anasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: nomoddiy madaniy meros, YUNESKO, Namangan viloyati, katta ashula, askiya, Chust pichog‘i, do‘ppi, hunarmandchilik, ustoz–shogird an’anasi, muhofaza.

ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОХРАНЫ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ И ЕЁ РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ: ОПЫТ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ (1991–2026)

Солижонов Отабек Улугбек угли
Ташкентский филиал UBS, преподаватель.

Аннотация.
В статье анализируется формирование и развитие системы охраны нематериального культурного наследия Узбекистана в годы независимости с выделением четырёх основных этапов. На примере Наманганской области рассматриваются современное состояние и региональные особенности исполнительского искусства, традиционных ремёсел, национальных кулинарных традиций и народных праздников. В качестве основных проблем определяются сценизация нематериального культурного наследия, его коммерциализация и нарушение межпоколенческой передачи культурных традиций. Кроме того, предлагаются меры по ведению реестра носителей нематериального культурного наследия, цифровому документированию его элементов, а также поддержке и стимулированию традиции наставничества «устоз–шогирд» («учитель–ученик»).

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, ЮНЕСКО, Наманганская область, катта ашула, аския, чустский нож, тюбетейка, ремесленничество, традиция «устоз–шогирд», охрана.

THE FORMATION OF THE INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE SAFEGUARDING SYSTEM AND ITS REGIONAL CHARACTERISTICS: THE EXPERIENCE OF NAMANGAN REGION (1991–2026)

Solijonov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li
UBS Tashkent Branch, Lecturer.

Abstract.
This article examines the formation and development of the intangible cultural heritage safeguarding system in Uzbekistan during the years of independence, distinguishing four main stages. Using Namangan Region as a case study, it explores the current state and regional characteristics of performing arts, traditional crafts, culinary traditions, and folk festivals. The staging and commercialization of intangible cultural heritage, along with disruptions in the intergenerational transmission of cultural traditions, are identified as major challenges. The article also proposes measures for maintaining a register of intangible cultural heritage bearers, digitally documenting heritage elements, and supporting and promoting the traditional *ustoz–shogird* (master–apprentice) system.

Keywords: intangible cultural heritage, UNESCO, Namangan Region, katta ashula, askiya, Chust knife, traditional skullcap, handicrafts, master–apprentice tradition, safeguarding.

Kirish. Nomoddiy madaniy meros moddiy yodgorliklardan bir jihati bilan keskin farq qiladi: u muzey javonida emas, odamlarning xotirasi, qo‘li va ovozida yashaydi. Usta shogirdiga hunarini o‘rgatmasa, hofiz ashulani aytmay qo‘ysa, mahalla

ISSN 3060-5059 (Online)

marosimni o‘tkazmasa, meros hech qanday buzilishsiz, shunchaki unutilish orqali yo‘qoladi. Shu sababli uni o‘rganish tarix fani uchun faqat o‘tmishni tiklash emas, balki bugun kechayotgan jarayonni qayd etish vazifasi hamdir.

O‘zbekistonda bu sohaga munosabat mustaqillik yillarida bir necha bosqichda o‘zgardi. 1990-yillarda asosiy e’tibor milliy qadriyatlarni tiklashga, jumladan, Navro‘z va hayit kabi milliy va diniy bayramlarni rasmiy hayotga qaytarishga qaratildi. 1989-yil 26-fevralda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining Ideologiya bo‘limi «Navro‘z bayramini qayta tiklash haqida» tarixiy qaror chiqardi. 1990-yil 3-maydagi farmon hamda 1991-yil 12-fevraldagi PF-143-sonli Prezident farmoni bilan 21-mart rasman Navro‘z umumxalq bayrami va dam olish kuni deb belgilandi. 2000-yillarda, aniqroq aytganda, 2007-yil 12-dekabrdan boshlab bu masala huquqiy tus oldi: mamlakat YUNESKOning 2003-yilgi «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Konvensiyasiga qo‘shildi, «nomoddiy madaniy meros» tushunchasi milliy qonunchilikka kiritildi. So‘nggi o‘n yillikda esa meros turizm, hunarmandchilik bozori va xalqaro festivallar bilan bog‘lanib, iqtisodiy resurs sifatida ham ko‘rila boshlandi.

Umumdavlat miqyosidagi bu o‘zgarishlar hududlarda bir xil kechgani yo‘q. Farg‘ona vodiysining shimolida joylashgan Namangan viloyati bu jihatdan qulay kuzatuv maydoni sanaladi. Viloyatda katta ashula va askiya singari vodiyga xos ijro an’analari, Chust do‘ppisi va pichog‘i kabi nomi hudud bilan birga tilga olinadigan hunarlar, shuningdek, gul bayrami kabi nisbatan yangi, biroq an’anaga aylangan tadbirlar yonma-yon mavjud. Ularning har biri mustaqillik davrida o‘ziga xos yo‘lni bosib o‘tdi.

Maqolaning maqsadi mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimi qanday shakllanganini ko‘rsatish va uning Namangan viloyatidagi amaliy natijalarini baholashdan iborat. Bu maqsad uchta vazifani belgilaydi:

1. Sohaning huquqiy va institutsional asoslari shakllanishini davrlashtirish;
2. Namangan viloyatidagi asosiy meros unsurlarining mustaqillik davridagi holatini tavsiflash;
3. Rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha takliflar berish.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI VA TADQIQOT METODLARI

Mavzuga oid adabiyotlarni uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh sohaning huquqiy jihatlarini yoritadi. O‘. Toshmatov va N. Isakulovaning 2014-yilda chop etilgan kitobi shu yo‘nalishdagi dastlabki umumlashtiruvchi ishlardan biri bo‘lib, unda xalqaro va milliy me’yorlar bir tizimda ko‘rib chiqilgan [6]. Ikkinchi guruh respublika miqyosidagi umumiy holatni tahlil qiladi. J. Axmedov maqolasida YUNESKO ro‘yxatlariga kiritilgan va kiritilishi rejalashtirilgan unsurlar, ularni ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish masalalari ko‘tarilgan [7].

Uchinchi guruh alohida hudud yoki alohida unsurga bag‘ishlangan tadqiqotlardan iborat. Namangan viloyati bo‘yicha bunday ishlar hali kam. Z. Haydarovning «Nomoddiy madaniy meros» deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasini ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlarning debochasi deyish mumkin [8]. B. Zokirovning Yangiqo‘rg‘on tumani Nanay qishlog‘ida tayyorlanadigan «xamir soldi» taomi haqidagi maqolasi diqqatga sazovor: muallif bitta mahalliy taomni nomoddiy meros va turizm resursi sifatida ko‘rib chiqadi [9]. Biroq viloyat merosini yaxlit holda, mustaqillik davridagi o‘zgarishlar bilan bog‘lab tahlil qiluvchi tadqiqot ishlari viloyat miqyosida nomoddiy madaniy meros unsurlari juda boy bo‘lishiga qaramay, juda kam. Ushbu maqola ana shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

NATIJALAR

Mustaqillik davrida nomoddiy merosga oid davlat siyosati shartli ravishda to‘rt bosqichda shakllandi va har bir bosqichda uning mazmuni o‘zgarib bordi: avval tiklash, keyin huquqiy belgilash, so‘ng ro‘yxatga olish va nihoyat, undan foydalanish ustuvor bo‘ldi.

Bosqich	Asosiy hujjat va voqealar	Ustuvor vazifa
1991-2000	Konstitutsiyada madaniy merosni asrash majburiyatining mustahkamlanishi; “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi qonun (1998)	Milliy qadriyat va bayramlarni tiklash
2001-2009	“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun (2001) [2]; Boysun madaniy muhitining YUNESKO tomonidan e’tirof etilishi (2001); 2003 yilgi Konvensiyaga qo‘shilish (2008) [1]	Tushunchani huquqiy belgilash, xalqaro tizimga kirish
2010-2016	2010–2020 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi (2010) [3]; Vazirlar Mahkamasining 47-son qarori (2011) [4]; milliy va mahalliy ro‘yxatlarning tuzilishi [14]	Aniqlash, hujjatlashtirish, ro‘yxatga olish
2017 yildan	Xalqaro festivallar, hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash; YUNESKO ro‘yxatlaridagi unsurlar sonining 2023 yil oxirida 15 taga yetishi [14]; boshqaruv vakolatlarining qayta taqsimlanishi (2026) [5]	Merosni turizm va iqtisodiyot bilan bog‘lash

Nomoddiy madaniy merosning huquqiy asoslari yaratilishining dastlabki bosqichida hali «nomoddiy madaniy meros» atamasining o‘zi to‘liq muomalada emas edi. Sohaga oid tadqiqot ishlari «milliy qadriyatlar», «xalq ijodi», «an’analar» kabi tushunchalar doirasida olib borildi. 2001-yilgi «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi qonun ham dastlab asosan moddiy yodgorliklarga qaratilgan bo‘lib, nomoddiy meros keyingi

ISSN 3060-5059 (Online)

o‘zgartirishlar orqali mustaqil muhofaza obyekti sifatida aniq belgilandi [2; 6].

Soha rivojlanishining burilish nuqtasi 2008-yil bo‘ldi. YUNESKO tomonidan tasdiqlangan «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Konvensiyaga qo‘shilish orqali O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududidagi meros unsurlarini aniqlash, ularning ro‘yxatini tuzish va uni muntazam yangilab borish bo‘yicha aniq majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi [1]. Bu majburiyat uchinchi bosqichning mazmunini belgiladi. 2010-yilgi Davlat dasturi o‘n yillik rejani belgilab berdi, 2011-yilgi qaror esa ro‘yxatlarni yuritish tartibini tasdiqladi [3; 4]. Ro‘yxatlar uch darajada — xalqaro, milliy va mahalliy darajalarda shakllantirildi. Mahalliy ro‘yxatlar aynan viloyatlar merosini qayd etish vositasi bo‘lgani uchun hududiy tadqiqotlarda alohida ahamiyatga ega.

Keyingi bosqichda O‘zbekistondagi nomoddiy madaniy meros elementlarining xalqaro e’tirofi oshdi. 2023-yil dekabrida birdaniga uchta element Reprezentativ ro‘yxatga kiritildi va O‘zbekiston ishtirokidagi unsurlar soni 15 taga yetdi [14]. 2025-yil dekabrida qoraqalpoq qo‘biz ijrochiligi shoshilinch muhofazaga muhtoj meros ro‘yxatidan o‘rin oldi [16]. Shu bilan birga, 2026-yil iyulida qabul qilingan qonun madaniy meros sohasidagi davlat organlarining vakolatlarini qayta taqsimladi [5]. Demak, institutsional tizim hali to‘liq qaror topgani yo‘q, u doimiy ravishda rivojlantirilmoqda.

Bu davrlashtirishdan bir xulosa kelib chiqadi. Siyosat markazdan boshlanib, hududlarga ro‘yxat va festival shaklida yetib bordi. Ro‘yxatga kirish esa merosning o‘zi yashayotganini anglatmaydi. Buni tekshirish uchun aniq bir hududga murojaat qilish kerak.

Namangan viloyatida nomoddiy meros to‘rt yo‘nalishda yaqqol namoyon bo‘ladi: ijro san’ati, hunarmandchilik, taomlanish an’analari va bayramlar. Ularning mustaqillik davridagi taqdiri bir xil emas — ba’zilari xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ldi, ba’zilari esa hanuz faqat mahalliy doirada ma’lum.

Unsur	Tarqalgan hududi	Sohasi	E’tirof darajasi
Katta ashula	Farg‘ona vodiysi, jumladan Namangan	Ijro san’ati	YUNESKO Reprezentativ ro‘yxati (2009)
Askiya	Farg‘ona vodiysi, jumladan Namangan	Og‘zaki ijod, ijro san’ati	YUNESKO Reprezentativ ro‘yxati (2014)
Chust pichoqchiligi	Chust tumani	Hunarmandchilik	[milliy yoki mahalliy ro‘yxatdagi tartib raqami kiritiladi]
Chust do‘ppido‘zligi	Chust tumani	Hunarmandchilik	[milliy yoki mahalliy ro‘yxatdagi tartib raqami kiritiladi]
“Xamir soldi” taomi	Yangiqo‘rg‘on tumani, Nanay qishlog‘i	Taomlanish an’anasi	Ilmiy adabiyotda qayd etilgan [8]
Gul bayrami	Namangan shahri	Bayram, ijtimoiy odat	[rasmiy maqomi aniqlanadi]

Nomoddiy madaniy meros elementlaridan biri bo‘lgan katta ashula va askiya butun Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lsa-da, har bir viloyatda o‘z ijro maktabi va ustozlar silsilasi bor. Katta ashula sozsiz, ikki yoki undan ortiq hofiz tomonidan navbatma-navbat aytiladi va ijrochidan keng nafas hamda mumtoz she’riyatni chuqur bilishni talab qiladi. Askiya esa so‘z o‘yini va hozirjavoblikka qurilgan bahs bo‘lib, uning tayyor matni bo‘lmaydi. Har ikki janrni kitobdan o‘rganib bo‘lmaydi, ular faqat ustoz yonida, jonli davrada o‘zlashtiriladi.

Ikki unsurning YUNESKO ro‘yxatiga kiritilishi ularga e’tiborni kuchaytirdi: ko‘rik-tanlovlar yo‘lga qo‘yildi, ijrochilar festivallarga taklif etila boshlandi. Ammo sahna va an’anaviy davra bir narsa emas. To‘y va gap-gashtaklarda aytiladigan katta ashula tinglovchi bilan bevosita muloqotda yashaydi, sahnada esa u belgilangan vaqtga sig‘dirilgan konsert raqamiga aylanadi. Namangan viloyatida bugun faol ijod qilayotgan hofiz va askiyachilar soni, ularning yoshi va shogirdlari haqidagi ma’lumotlar bu farqni aniq ko‘rsatadi. Masalan, Norin askiyachilar jamoasi asosan o‘rta va katta yoshli askiyachilardan tashkil topgan bo‘lsa-da, ularning yosh shogirdlar ham tayyorlayotgani, albatta, quvonarli holat.

Chust nomi ikki buyum bilan birga tilga olinadi: pichoq va do‘ppi. Shahar ustalari bu ikki hunar bilan asrlar davomida shug‘ullanib kelgan. Ustalar orasida pichoqchilik aynan Chustdan tarqalgan degan qarash ham saqlangan [10]. Chust do‘ppisining qora zaminga oq ipak bilan tikilgan qalampir nusxasi esa butun mamlakatda tanish belgi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida bu hunarlar ikki xil bosimga duch keldi. Bir tomondan, xususiy tadbirkorlikka yo‘l ochilishi va hunarmandlarga berilgan imtiyozlar ustaxonalar sonini ko‘paytirdi. Ikkinchi tomondan, fabrikada tayyorlangan arzon mahsulotlar bozorni to‘ldirdi. Dastgohda shtamplangan tig‘ va mashinada tikilgan do‘ppi qo‘l mehnati bilan tayyorlangan mahsulotlar bilan raqobatlashmoqda, xaridor esa ularni har doim ham ajrata olmaydi. Natijada hunar saqlanib qoldi, biroq uning eng murakkab, ko‘p vaqt talab qiladigan usullari kamroq qo‘llanmoqda. Chust shahrida faoliyat yurituvchi do‘ppido‘z va pichoqchi hunarmandlar bilan o‘tkazilgan suhbatlarda ular zamonaviy texnologiyalar haqiqatan ham mahsulotlarining savdosiga ta’sir etganini aytib o‘tgan bo‘lsalar-da, qo‘l mehnati bilan tayyorlangan mahsulotlar fabrika mahsulotlaridan o‘zining sifati bilan ajralib turishini alohida ta’kidlab, raqobatdan qo‘rqmasliklarini bildirdilar.

Viloyatning boshqa tumanlarida ham hunarmandchilik an’analari bor. Kosonsoy to‘quvchiligi shular jumlasidan bo‘lib, uning hozirgi holati alohida o‘rganishni talab qiladi.

Mahalliy taomlar viloyat merosining eng kam hujjatlashtirilgan qismidir. Nanay qishlog‘ining «xamir soldi» taomi bunga misol: u tor hududda tayyorlanadi, tayyorlash usuli og‘zaki tarzda avloddan avlodga o‘tadi va yaqin vaqtgacha ilmiy tavsifga ega emas edi [9]. Bunday unsurlar ro‘yxatlarga kam kiritiladi, chunki ularni aniqlash uchun qishloqma-qishloq dala tadqiqotlarini o‘tkazish kerak.

Namangan gul bayrami boshqa turdagi hodisa. U qadimiy marosim emas, XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan

shahar tadbiridir. Shunga qaramay, bir necha avlod davomida uzluksiz o‘tkazilib, shahar aholisining o‘zini anglashida muhim o‘rin egalladi. Bu misol merosning faqat o‘tmishdan qolgan narsa emasligini, u bugun ham shakllanishda davom etayotganini ko‘rsatadi.

Viloyatda moddiy meros aniq hisobga olingan: 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 274 ta obyekt, shundan 152 tasi arxeologik va 98 tasi me’moriy yodgorlik sifatida qayd etilgan [12]. Afsuski, nomoddiy madaniy meros bo‘yicha esa shunday ochiq va muntazam yangilanadigan statistika mavjud emas. Bu farq tasodifiy emas: binoni sanash oson, tirik an’anani esa har yili qayta tekshirish kerak. Biroq hisob bo‘lmagan joyda rejalashtirish ham, natijani baholash ham qiyinlashishi tabiiy.

MUHOKAMA

Namangan misoli respublika miqyosidagi uchta tendensiyani va ularning har biri ortidagi muammoni ko‘rsatadi.

Sahnalashuv. Festival va ko‘rik-tanlovlar merosni keng ommaga tanitdi, ijrochilarga obro‘ va daromad keltirdi. Shu bilan birga, an’ana o‘z tabiiy muhitidan — to‘y, mahalla davrasi, ustaxonadan — sahnaga ko‘chmoqda. Sahna uchun tayyorlangan ijro qisqaradi, soddalashadi va tomoshabinga moslashadi. Konvensiya esa muhofazani aynan jamoa ichidagi hayotiylikni ta’minlash deb tushunadi [1].

Tijoratlashuv. Hunarmandchilik mahsulotlariga talab ortdi, bu ijobiy hol. Ammo bozor tez va arzon ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi. Qo‘lda bajariladigan murakkab usullar iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamay qolsa, usta ulardan voz kechadi va shogirdga ham o‘rgatmaydi. Hunar nomi saqlanadi, mazmuni esa sayozlashadi.

Avlodlar uzilishi. Ustoz-shogird an’anasi nomoddiy merosni uzatishning asosiy yo‘li bo‘lib qolmoqda. Yoshlarning shaharga va chet elga ishlash uchun ketishi, hunar o‘rganishga ketadigan yillar davomida daromadning pastligi bu zanjirni zaiflashtiradi. Ayniqsa, katta ashula kabi uzoq tayyorgarlik talab qiladigan janrlarda bu yaqqol seziladi.

Bularga ikkita tashkiliy muammo qo‘shiladi. Birinchisi, yuqorida qayd etilgan hisob masalasi: viloyat darajasida tashuvchilar, ya’ni usta va ijrochilarning aniq, yangilanib turadigan reyestri ochiq manbalarda yo‘q. Ikkinchisi, hujjatlashtirishning sustligi: keksa ustalar va hofizlarning bilimi audio va video shaklida yetarlicha yozib olinmagan.

Ushbu muammolardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Viloyat bo‘yicha nomoddiy meros tashuvchilarining ochiq reyestrini yuritish va uni har yili yangilash. Reyestrda ustaning yoshi, hunar turi va shogirdlari soni ko‘rsatilishi lozim.

2. Keksa tashuvchilarning bilimini raqamli shaklda yozib olish bo‘yicha viloyat dasturini ishlab chiqish, yozuvlarni viloyat arxivi va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda saqlash.

3. Qo‘l mehnati bilan tayyorlangan mahsulotni fabrika mahsulotidan ajratadigan belgi joriy etish. Chust pichog‘i va do‘ppisi uchun geografik ko‘rsatkich maqomi shu vazifani bajarishi mumkin.

4. Shogird tayyorlayotgan ustalarni natijaga qarab rag‘batlantirish: imtiyoz ustaxona ochilgani uchun emas, balki shogird mustaqil ishlay boshlagani uchun berilsa, uzatish jarayoni kuchayadi.

5. Mahalliy taomlar, marosimlar va o‘yinlarni aniqlash uchun tumanlar kesimida dala ekspeditsiyalarini tashkil etish va natijalarni mahalliy ro‘yxatga kiritish.

6. Festivallar bilan bir qatorda an’anaviy davralarni — mahalla, choyxona va ustaxona muhitini qo‘llab-quvvatlash.

XULOSA. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimi yo‘qdan bor qilindi: tushuncha qonunchilikka kiritildi, uch darajali ro‘yxatlar tuzildi, mamlakat ishtirokidagi 15 dan ortiq unsur YUNESKO ro‘yxatlaridan joy oldi. Bu jarayon to‘rt bosqichda kechdi va har bir bosqichda ustuvor vazifa o‘zgardi.Namangan viloyati misoli shuni ko‘rsatadiki, xalqaro va milliy darajadagi yutuqlar hududda bir tekis aks etmagan. Katta ashula va askiya yuqori e’tirofga ega, Chust hunarlari bozorda o‘z o‘rnini saqlagan, mahalliy taomlar va odatlar esa hali to‘liq aniqlanmagan. Moddiy yodgorliklar sanab chiqilgan bir paytda, nomoddiy meros tashuvchilarining ochiq hisobi yuritilmaydi.Asosiy xavf merosning yo‘qolishida emas, balki uning ichki mazmuni sezilmas darajada soddalashib borishidadir. Sahnalashuv, tijoratlashuv va avlodlar uzilishi shu jarayonning uch ko‘rinishidir. Ularga qarshi chora ro‘yxatni uzaytirish emas, balki tashuvchini — usta va ijrochini — qo‘llab-quvvatlash hamda ularning bilimini o‘z vaqtida yozib olishdir. Maqolada taklif etilgan reyestr, raqamli hujjatlashtirish va shogird tayyorlash natijasiga bog‘langan rag‘bat shu maqsadga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris: UNESCO, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi 269-II-son «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-25461.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi «2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevraldagi 47-son «Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 23-iyuldagi O‘RQ-1160-son «Madaniy meros sohasidagi davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://www.lex.uz/ru/docs/-8354297.
6. Toshmatov O‘. G‘., Isakulova N. J. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2014. – URL: https://uzbekacademy.uz/oz/article/2024/08/08/nomoddiy-madaniy-merosni-muhofaza-qilishning-huquqiy-asoslari.
7. Axmedov J. O‘zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi // FarDU ilmiy xabarlari. – 2024. – № 3. – URL: https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3765.

8. Haydarov Z. U. Nomoddiy madaniy meros: ma'ruzalar matni. – Namangan: NamDU, 2014.
9. Zokirov B. Yangiqo'rg'on tumani etnoturizmini rivojlantirishda lokal atributlardan foydalanish («xamir soldi» taomi misolida) // Sharq ijtimoiy fanlar jurnali (Oriental Journal of Social Sciences). – 2025. – № 1. – B. 52–56. – URL: https://www.supportscience.uz/index.php/ojss/article/view/1925.
10. UNESCO. Lists of Intangible Cultural Heritage and the Register of Good Safeguarding Practices: Uzbekistan [Elektron resurs]. – URL: https://ich.unesco.org/.
11. Chust – hunarmandlar shahri va qadimiy an'analar maskani // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali (Gov.uz) [Elektron resurs]. – 2026. – 5-iyul. – URL: https://gov.uz/oz/edu/news/view/190067.
12. Namangan viloyatida nechta moddiy madaniy meros obyektlari mavjud // O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/50271-namangan-viloyatida-nechta-moddiy-madaniy-meros-obyektlari-mavjud-3.
13. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro'yxati: risola // IRCI ma'lumotlar bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://www.irci.jp/rdb/item/13197.
14. Three Nominations Put Forward by Uzbekistan Are Included in the Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity // Embassy of Uzbekistan [Elektron resurs]. – 2023. – URL: https://uzbekembassy.com.my/eng/news_press/three_nominations_put_forward_by_uzbekistan_are_included_in_the_representative_list_of_the_intangible_cultural_heritage_of_humanity.html.
15. Muallifning dala materiallari. – Namangan viloyati. – [Tadqiqot yillari, tumanlar va axborotchilar ro'yxati ko'rsatiladi].
16. Kobyz and the Yurt: Central Asia's Living Knowledge Enters UNESCO's Intangible Heritage Lists // Euronews [Elektron resurs]. – 2025. – 22-dekabr. – URL: https://www.euronews.com/2025/12/22/kobyz-and-the-yurt-central-asias-living-knowledge-enters-unescos-intangible-heritage-lists.